Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 3 (2024) · "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish tendensi... DOI: 10.5281/zenodo.24316619

oshirish yagona konsepsiya bilan bog'laydilar. Ushbu holatda yagona konsepsiyaning asosiy yo'nalishlari va ta'moyillariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) Moliyaviy nazorat tizimini ma'yoriy-huquqiy ta'minotini yanada takomillashtirish;
2) Moliyaviy nazorat tarkibida budjet nazorati tizimini qayta tashkil qilish va unda byudjept mablag'larini xarakati va maqsadli yo'nalishi nazoratini ta'minlashni yo'lga qo'yish;
3) Budjet jarayoning dastlabki va joriy nazorat samaradorligini ta'minlash maqsadida g'azna ijrosini to'liq joriy qilish (barcha budjet tashkilotlarini g'aznachilik bilan to'liq qamrab olish).
4) Moliyaviy nazorat tizimi samaradorligini yanada oshirish uchun axborot komunikatsion texnologiyalar foydalanishni keng yo'lga qo'yish, ya'ni moliyaviy nazoratning avtomatlashtirigna tizimi (MNAT)ni to'liq shakillantirish;
5) Moliyaviy nazoratni o'tkazish uslubiyotini, davlat budjeti muassasaalrini xususiyatlaridan kelib chiqib takomillashtirish, ya'ni nazorat uslubiyotini muassasalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan xolda ishlab chiqish.
6) Budjet tashkilotlarini moliyaviy mablag'lardan foydalanish samaradorligini muntazam o'rganib, baholab borish asosida uni optimallashtirishga erishish;
7) Moliyaviy nazoratni yanada takomillashtirish maqsadida rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o'rganish va ularning eng afzallaridan qo'llash bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF 60-sonli Farmoni. https//lex.uz/pdfs/5841063
2. Jabborov A. Davlat moliyaviy nazorati transformatsiyasi. Moliyaviy nazorat va audit.// "Moliyachi ma'lumotnomasi" jurnali.- T. 2022. № 3
3. Axmedov O. Budjet tashkilotlarida davlat nazorati tizimini takomillashtirish. http//www/scientificprogress.uz, 2022

MOLIYAVIY NAZORAT VA UNI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY MAZMUNI VA MOHIYATI

Tuychiyev Abdurahmon G'ofurovich
TDIU, Andijon fakulteti „Mutaxassislik fanlari" kafedrasi dotsenti,
Muhiddinov Nazirjon Davronboy o'g'li
TDIU, Andijon fakulteti "Bank ishi va auditi" ta'lim yo'nalishi, 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada umumdavlat moliyaviy nazoratini tashkil etishning iqtisodiy mazmuni va mohiyati, moliyaviy nazoratning ijtimoiy va iqtisodiy takror ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz rivojlanishi, ilmiy-texnik taraqqiyotni*

Published: 17.05.2024
Cite this article: Tuychiyev Abdurahmon G'ofurovich, Muhiddinov Nazirjon Davronboy o'g'li (2024). Moliyaviy nazorat va uni tashkil etishning iqtisodiy mazmuni va mohiyati. Emro Science and Education, 1(3). https://doi.org/10.5281/zenodo.24316619
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

tezlashuvi, iqtisodiyotning barcha sohalarida sifat ko’rsatkichlarini yaxshilashni ta’minlashga yo’naltirilganligi bayon qulingan.

Kalit so‘zlar: *Nazorat, moliyaviy nazorat, byudjet, byudjet jarayoni, byudjetdan moliyalashtirish, byudjet tashkiloti, davlat moliyaviy nazorati, moliyaviy nazoratning subyektlari, moliyaviy nazorat obyektlari, moliyaviy nazorat ta’moyillari, byudjetdan moliyalashtirish, byudjet tashkiloti, davlat moliyaviy nazorat.*

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va tarkiblashtirish sharoitida mamlakat iqtisodiyoti va moliya tizimining samarali amal qilishining zaruriy sharti bo’lib moliyaviy nazorat xizmat qiladi. Moliyaviy nazorat ijtimoiy va xususiy takror ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz rivojlanishi, ilmiy-texnik taraqqiyotni tezlashuvi, iqtisodiyotning barcha sohalarida sifat ko’rsatkichlarini yaxshilashni ta’minlashga yo’naltirilgandir.

Moliyaviy nazoratning asosiy maqsadi tekshirilayotgan obyektda mavjud bo’lgan haqiqiy holatni obyektiv o’rganish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ijro etishga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi omillarni aniqlash yoki oldini olishdan iborat. Moliyaviy nazorat jamiyat iqtisodiyotidagi iqtisodiy samaradorlikni rag’batlantirish, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, noishlab chiqarish xarajatlarini imkoniyat darajasida iqtisod qilinishi bilan dolzarb ahamiyatga ega.

Moliyaviy nazorat mazmunan ikki katta guruhga bo’lib o’rganiladi:

- birinchisi davlat moliyaviy nazorati organlari bo’lib unga O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Hisob palatasi, Moliya vazirligi tarkibidagi Nazorat – taftish bosh boshqarmasi, Soliq qo’mitasi, Davlat Bojxona qo’mitasi va boshqalar kiradi;

- ikkinchi guruh nodavlat moliyaviy nazorat tashkilotlari bo’lib, bular xilma-xil mulk shaklida bo’lgan audit muassasalari hisoblanadi.

Moliyaviy nazoratni o’rganish jarayonida mana shu ikki nazorat guruhining funktsiyalari va vazifalarining uyg’unligi hamda tafovutlari qamrab olinadi.

Moliyaviy nazorat – bu moliyaviy tekshirish va u bilan bog’liq bo’lgan masalalar harakatini va muomalasini majmui bo’lib, xo’jalik subyektlari faoliyatini va boshqarishni o’ziga xos usullari va shakllari yordamida tashkil etiladi.

Moliyaviy nazorat jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish ustidan davlat nazoratining tarkibiy elementi bo’lib hisoblanadi. Davlat moliyaviy nazoratning boshqaruv tizimining asosiy elementi bo’lgan umumiy nazorat tizimidagi muhim o’rni va ahamiyati shundaki, birinchidan, moliya o’zi iqtisodiy kategoriya sifatida obyektiv tarzda nazorat funktsiyasini bajaradi; ikkinchidan, bozor iqtisodiyotida moliyaviy munosabatlarning roli oshib boradi. Barcha uzluksiz takror ishlab chiqarish jarayonlarini, xo’jalik yuritishning barcha pog’onalari, davlat boshqaruvining barcha darajalarini qamrab olar ekan moliyaviy nazoratning universal quroli sifatida amal qiladi.

Bozor iqtisodiyoti uchun davlat moliyaviy nazorati faoliyatning alohida bir sohasiga aylanib boradi. Davlat moliyaviy nazoratining obyekti bo’lib boshqarishning barcha darajalarida moliyaviy resurslarning shakllanishi va ishlatilishidan taqsimlanish jarayonlari maydonga chiqadi. Bu boradagi Davlat moliyaviy nazorati

avvalo davlat moliyaviy resurslaridan maqsadga muvofiq va samarali foydalanishi, davlat mulkidan oqilona foydalanishini ta’minlashga xizmat qilmog’i lozim.

Moliyaviy nazorat – davlat tomonidan tashkil etilgan, nazorat o’tilish vazifalari yuklatilgan davlat yoki mustaqil jamoat organlari tomonidan hukumat, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar faoliyatining samaradorligini aniqlashga qaratilgan nazorat tizimidir. Davlat byudjetini shakllantirish va sarflashdagi rezervlarni, moliyaviy va moddiy resurslarni boshqarishning barcha darajalarida operatsiyalarning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini, qonuniylik printsiplaridan chetga og’ish va ularni buzishlarni aniqlash nazorat tizimi vazifasiga kiradi.

Davkat moliyaviy nazoratining maqsadi - tuzatish choralarini ko’rish, aybdorlarni javobgarlikka tortish va buzishlarning oldini olishdan iborat. Moliyaviy nazoratning yuzaga kelishi va rivojlanishi davlat moliyaviy tizimining tashkil etilishi va rivojlanishi bilan shart qilib qo’yildi.

Moliya kabi moliyaviy nazorat ham kapitalistik jamiyatdan avvalgi bosqichlardayoq, shakllanish va rivojlanishning uzok davrini bosib o’tgan. Uning ba’zi elementlari quldorlik va feodal jamiyatlaridagi ijtimoiy munosabatlarda ham namoyon bo’lgan. «Natura xo’jaligining umumiy iqtisodiy quldorlik va feodal jamiyatlari barcha ijtimoiy qatlamlariga singgan hokimlik va tobelik munosabatlari, «musht» huquqi davlat soliq to’plovchilari faoliyatining nihoyatda xilma xil «nazorat» shakllarining gurkirab gullab-yashnashi uchun obyektiv asos yaratadi. Moliyaviy nazorat nazariyasi, uning mazmuni, o’rni va tashkil etilishini ishlab chiqish bilan ko’plab olimlar shug’ullangan bo’lib, shuning uchun bozor munosabatlarining yangi tizimiga o’tish va yangi moliyaviy tizimni shakllantirish chog’ida barcha turli-tuman fikrlarni, jumladan MDH davlatlari va bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar olimlarining fikrlarini o’rganib chiqmoq foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – Toshkent, “O’zbekiston”, 2023 yil

2. O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 y, 2- son.

3. Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi Kodeks. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995 y,3-son.

4. O’zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2007 y., 52 (I)-son

5. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y., 52-I-son

6. O’zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksi . O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2016 y., 3(I)-son

7. O’zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to’g’risida”gi Qonuni, 26.05.2000 y. (2017 yil 18 apreldagi O’RQ-429-sonli Qonuni bilan o’zgartirish kiritilgan)

8. O’zbekiston Respublikasining «Sug’urta faoliyati to’g’risida» Qonuni, 5.04.2002 y. (2017 yil 16 oktyabrdagi O’RQ-448-sonli Qonuni bilan kiritilgan)

9. O’zbekiston Respublikasining “O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to’g’risida"gi 525-II- sonli Qonuni, 29.08. 2003 y.
10. O’zbekiston Respublikasining “O’zbekiston Respublikasining Markaziy bank to’g’risida”gi Qonuni. 21.12.1995 y. (2018 yil 3 yanvardagi O’RQ-456- sonli Qonuni bilan kiritilgan)
11. O’zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to’g’risida”gi Qonuni.25.05.1996 y.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ QONUNCHILIGIDAGI O‘ZGARTISHLAR HAQIDA

Turaboev Kambarali Kodirovich
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
Andijon fakulteti“Mutaxassislik fanlari”
kafedrasi assistenti

Soliq va byudjet siyosatining 2024 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim Qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-891-sonli Qonuni, O‘RQ-886-sonli Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 29 dekabrdagi PQ-422-sonli qarori qabul qilindi.

Ushbu karorga asosan soliq qonunchiligiga qator o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Soliq kodeksining 17- moddasida ko‘rsatilgan yig‘imlarning turlariga yuk ko‘tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo‘lgan avtotransporti vositalari va tirkamalarning avtomobil yo‘llari bo‘ylab harakatlanish huquqi uchun yig‘im turi kiritildi.

Shu munosabat bilan Soliq kodeksining 455,456,457,458 va 460-moddalariga tegishli o‘zgartirishlar kiritildi.

Ushbu yigim Transport vazirligi hududiy boshqarmalari tomonidan undiriladi.

2024 yil uchun yuk ko‘tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo‘lgan yuk avtotransport vositalari va tirkamalarining avtomobil yo‘llari bo‘ylab harakatlanishi huquqi uchun yig‘imlar stavkalari quyidagicha belgilandi:

yuk ko‘tarish quvvati **10** tonnadan **25** tonnagacha bo‘lgan **N2, N3** toifasidagi avtotransport vositalari va 0**4** toifasidagi tirkamalar uchun yig‘im bazaviy hisoblash miqdorining **5** barobari miqdorida ya’ni **1 700 000** so‘m qilib belgilandi.

- yuk ko‘tarish quvvati **25** tonnadan **35** tonnagacha bo‘lgan **N2, N3** toifasidagi avtotransport vositalari va 0**4** toifasidagi tirkamalar uchun yig‘im bazaviy hisoblash miqdorining 8 barobari miqdorida ya’ni **2 720 000** so‘m qilib belgilandi.

yuk ko‘tarish quvvati **35** tonna va undan yuqori bo‘lgan **N2, N3** toifasidagi avtotransport vositalari va **04** toifasidagi tirkamalar uchun yig‘imbazaviy hisoblash miqdorining **10** barobari miqdorida ya’ni **3 400 000** so‘m qilib belgilandi.